

Министерство науки и высшего образования Российской Федерации
ФГБОУ ВО «Удмуртский государственный университет»
Институт естественных наук
Кафедра физиологии, клеточной физиологии и биотехнологии

Сергеева Т.Н., Черенков И.А., Сергеев В.Г.

ОСНОВЫ ОБЩЕЙ ГИСТОЛОГИИ

Учебно-методическое пособие



Ижевск
2024

Rossiya Federatsiyasi Ta'lim va fan vazirligi
Federal Davlat byudjeti oliy kasbiy ta'lim muassasasi
«Udmurt Davlat universiteti»
Tabiiy fanlar instituti
Fiziologiya, hujayra biologiyasi va biotexnologiyasi kafedrası

T.N. Sergeeva, I.A. Cherenkov, V.G. Sergeev

UMUMIY GISTOLOGIYA ASOSLARI

o'quv qo'llanmasi



Ijevsk
2024

УДК 611.018(075.8)

ББК 28.8я73

С322

Рекомендовано к изданию учебно-методическим советом УдГУ

Рецензент: канд. биол. наук, доцент каф. экологии и безопасности жизнедеятельности, Ургенчский государственный университет, Узбекистан, Ш.К. Бабаджанова

Сергеева Т.Н., Черенков И.А., Сергеев В.Г.

С322 Основы общей гистологии : учеб.-метод. пособие : [Электрон. ресурс] / пер. с рус. Б.А. Эшчанова. – Ижевск : Удмуртский университет, 2024. – 74 с.

Учебно-методическое пособие предназначено для работы на практических занятиях по разделу «Гистология». Структура занятий соответствует программе дисциплины «Цитология и гистология».

В структуре каждого занятия предусмотрены вопросы для самоподготовки, основные термины и понятия, изучаемой темы, описания практических работ. Пособие иллюстрировано микрофотографиями учебных препаратов.

Учебно-методическое пособие предназначено для студентов бакалавриата направления «Биология». Оно будет также полезно студентам медицинских вузов, учителям профильных биологических классов.

УДК 611.018(075.8)

ББК 28.8я73

© Т.Н. Сергеева, И.А. Черенков,
В.Г. Сергеев, 2024

© ФГБОУ ВО «Удмуртский
государственный университет», 2024

UDK 611.018 (075.8)

BBK 28. 8y73

C322

UdDU o'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Sharhlovchi: «Urganch davlat universiteti» ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası dotsenti, biologiya fanlari nomzodi, dotsent Sh.K. Babajdanova

Sergeeva T.N., Cherenkov I.A., Sergeev V.G.

C322 Umumiy gistologiya asoslari : o'quv qo'llanma. : [Elektron resurs]. / rus tilidan tarjiması B. A. Eshchanov. – Ijevsk : Udmurtiya universiteti nashriyot markazi, 2024. – 74 b.

O'quv qo'llanma «Gistologiya» bo'limida amaliy mashg'ulotlarda ishlash uchun mo'ljallangan. Darslarning tuzilishi «Sitologiya va gistologiya» fan dasturiga mos keladi.

Har bir dars tarkibida o'z-o'zini tayyorlash, asosiy atamalar va tushunchalar, o'rganilayotgan mavzular, amaliy ishlarning tavsiflari uchun savollar mavjud. Qo'llanma o'quv preparatlarining mikrografiyalari bilan tasvirlangan.

O'quv qo'llanma biologiya yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, u tibbiyot universitetlari talabalari, ixtisoslashgan biologik sinflar o'qituvchilari uchun foydali bo'ladi.

УДК 611.018(075.8)

ББК 28.8я73

T.N. Sergeyeva, I.A. Cherenkov,

V.G. Sergeev, 2024

Federal Davlat byudjeti oliy kasbiy ta'lim muassasasi «Udmurt Davlat Universiteti», 2024

Оглавление

Предисловие.....	7
Занятие № 1. Общие представления о тканях. Эпителиальные ткани	9
Занятие № 2. Железистые эпителии. Многослойные эпителии.....	6
Занятие № 3. Мезенхима. Кровь. Гемопоз 24	
Занятие № 4. Рыхлая соединительная ткань. Плотная соединительная ткань. Жировые ткани.....	29
Занятия № 5-6. Скелетные соединительные ткани	39
Занятие № 7. Мышечные ткани.....	53
Занятие № 8. Нервная ткань	58
Задания для самоконтроля и развития компетенций	70
Вопросы по разделу «Общая гистология»	72
Использованная и рекомендуемая литература	74

Mundarija

So‘zboshi.....	7
1-mashg‘ulot. To‘qimalar haqida umumiy tushuncha. Epiteliy to‘qimalari.....	9
2-mashg‘ulot. Bezli epiteliy. Ko‘p qavatli epiteliy.....	16
3-mashg‘ulot. Mezenxima. Qon. Gemopoez.....	24
4-mashg‘ulot. Siyrak tolali biriktiruvchi to‘qima. Zich biriktiruvchi to‘qima. Yog‘ toqimasi.....	29
5-6-mashg‘ulot. Skelet biriktiruvchi to‘qimalari.....	39
7-mashg‘ulot. Mushak to‘qimasi.....	53
8-mashg‘ulot. Nerv to‘qimasi.....	58
Mustahkamlash va rivojlantirish uchun vaziyatli vazifalar.....	70
«Umumiy gistologiya» bo‘limidagi savollar.....	72
Ishlatilgan va tavsiya etilgan adabiyotlar.....	74

So‘zboshi

Hurmatli talabalar, biz «Sitologiya va gistologiya» fanining yangi bo‘limini - to‘qimalar haqidagi ta‘limotni o‘rganishga kirishamiz. Hozirgacha biz hujayralararo o‘zaro ta’sirlar, hujayra ixtisoslashuvi va hujayralararo moddalarning roliga e’tibor bermasdan, hujayralarning strukturaviy tashkil etilishi va hayotiy faoliyatining umumiy qonuniyatlarini o‘rgandik. Shu bilan birga, ko‘p hujayrali organizmda har bir hujayra to‘qima tizimning elementi bo‘lib, ma’lum funktsiyalarni bajaradi, bunda hujayralararo matritsa vositachiligidagi boshqa hujayralar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish funksional faoliyati mahsuloti bo‘lib murakkab ixtisoslashgan hujayralar hisoblanadi.

Zamonaviy to‘qimalar biologiyasi «Sitologiya» bo‘limida bo‘lgani kabi, biologiyaning boshqa tarmoqlari bo‘yicha bilimlarni birlashtiradi va, biz sizlar bilan biokimyó, genetika, molekulyar biologiya, fiziologiya va albatta, hujayra biologiyasi bo‘yicha doimiy ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Bizning o‘quv qo‘llanmamiz «Gistologiya» bo‘limida amaliy mashg‘ulotlarda ishlash uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma umuman olganda, «Sitologiya» bo‘limiga o‘xshaydi va darsga tayyorgarlik jarayonida ishlashingiz kerak bo‘lgan savollarni o‘z ichiga oladi, «kalit so‘zlar va tushunchalar» bo‘limida mavzuni tushunish uchun zarur bo‘lgan eng muhim atamalar mavjud. Darsliklar va ma’ruza malumotlaridan foydalanib, ularning ma’nosini mustaqil ravishda tushunishga harakat qiling.

Ushbu qo‘llanmaning asosiy qismi amaliy ishlarga bag‘ishlangan. Ko‘pincha ular doimiy mikropreparatlarni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘ladi. Qo‘llanmani yozishda biz amaliy ishlarning o‘z-o‘zini ta’minlash prinsipini saqlab qolishga harakat qildik. Preparatning tavsifini diqqat bilan o‘qib chiqib, fotosuratlarini o‘rganib chiqib, siz vazifani o‘zingiz bajarishingiz mumkin. Qoida tariqasida, fotosuratlar preparatning umumiy ko‘rinishini tasvirlash uchun dastlab kichik ob’ektiv orqali, preparat tuzilmalarni batafsil ko‘rib chiqish uchun yuqori kattalashtiruvchi ob’ektiv orqali keltirilgan. Umumlashtiruvchi jadvallar

va sxemalarni tuzish kabi vazifalar ham keltirilgan. Bunday vazifalar darsliklar, o'quv qo'llanmalari va atlaslar yordamida amalga oshiriladi, ularning ro'yxati qo'llanma oxirida keltirilgan.

Qo'llanma oxirida siz o'zingizni tekshirish va ko'proq tushunchaga ega bo'lish uchun vazifalar mavjud. Ular, qoida tariqasida, qisqa va aniq javobni talab qilmaydi. Eslatib o'tamiz, yechimning maqsadi ushbu mavzuda muhokama qilingan faktlardan foydalangan holda mantiqiy fikrlash zanjirini shakllantirishdir. Ba'zilar, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishni talab qiladi. Muammolarni hal qilishda, baxslashish va o'z nuqtai nazariningizni himoya qilishga va albatta, yangi bilimlarni o'rganishga tayyor bo'ling.

Qo'llanma oxirida imtihonni muvaffaqiyatli topshirish uchun ishlab chiqilishi kerak bo'lgan «Gistologiya» bo'limidagi savollar keltirilgan.

O'z bilimingizni nazorat qilib ko'rishingiz uchun UdDU elektron ta'lim tizimidan foydalanishingiz mumkin (kursimiz manzilini eslatib o'tamiz <http://distedu.ru/course/view.php?id=78>). Bu yerda siz sitologiya va gistologiya bo'yicha qo'shimcha ma'lumot materiallari, test topshiriqlari, reyting balini oshirish uchun topshiriqlar va olimpiada topshiriqlarini topishingiz mumkin.

1-mashg'ulot. To'qimalar haqida umumiy tushuncha. Epiteliy to'qimalari.

Mashg'ulot maqsadi

To'qimalar haqidagi ta'limot va vazifalari bilan tanishish. Epiteliy to'qimalarining tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish.

Tayyorlanish uchun savollar:

1. «To'qima» tushunchasining ta'rifi. Hujayra ichi va hujayra tashqarisi tuzilmalari: xususiyatlari, funktsiyasi va misollar.
2. Epiteliy to'qimalarining umumiy xususiyatlari.
3. Epiteliy to'qimalarining morfologik tasnifi.
4. Epiteliy to'qimalarining gistogenetik tasnifi.

Asosiy atama va tushunchalar:


To'qima, differon, gistogenez, hujayra tashqarisi tuzilmalari, sinsitiyalar, simplastlar, epiteliotsitlar, bir qavatli epiteliy, ko'p qavatli epiteliy, bir yadroli epiteliylar, ko'p yadroli epiteliylar, bazal membrana, apikal qutb, bazal qutb, lateral qatlam, hujayralararo aloqalar.

Amaliy ishlar:

Amaliy ish № 1. Buyrak kanalining bir qavatli kubsimon epiteliysi.

«Buyrak kanallari epiteliysi»ning doimiy mikropreparatini kichik va yuqori kattalashtirishda o'rganing. Kichik kattalashtirishda bir qavatli epiteliy bilan qoplangan yumaloq yoki oval ichi bo'sh shakllanishlarga o'xshash buyrak kanallarining ko'ndalang kesimlarini toping (1-rasm).

Buyrak kanalining yorug' qismini, epiteliy hujayralarini, bazal membranani, biriktiruvchi to'qima stromasini va qon tomirlarini ko'rsatib, preparatning bir qismini chizib oling. Epiteliy hujayralarining shakliga e'tibor bering. Atlas va darslik bo'yicha kubsimon epiteliy hujayralarining ultrastrukturaviy tuzilishini o'rganing.




1-rasm. Oz prizmali epiteliy (gematoksilin-eozin).

1 - kanalning yorug‘ qismi; 2 – kubsimon hujayralar; 3 – kanalni o‘rab turuvchi biriktiruvchi to‘qima va qon tomirlari.

Amaliy ish № 2. Buyrak kanallarining bir qavatli prizmatik epiteliyasi.

«Buyrak kanallari epiteliysi»ning doimiy mikropreparatini kichik va yuqori kattalashtirishda o‘rganing. Oldingi preparatdan farqli o‘laroq, kanallarni kesish prizmatik epiteliya bilan qoplangan yig‘ish naychalari darajasida amalga oshirilgan (2-rasm).

Buyrak kanalining yorug‘ qismini, epiteliy hujayralarini, bazal membranani, biriktiruvchi to‘qima stromasini va qon tomirlarini ko‘rsatib, preparatning bir qismini chizib oling. Epiteliy hujayralarining shakliga e‘tibor bering.




2-rasm. Ko'p prizmalı epiteliy (gematoksilin-eozin).
1 – prizmatik epiteliotsit; 2 – qon tomirlari.

Amaliy ish № 3. Bir qavatli yassi epiteliy.

«Qorin bo'shlig'i mezoteliysi»ning doimiy mikropreparatini kichik va yuqori kattalashtirishda o'rganing. Kumush nitrat bilan ishlov berish texnikasi epiteliotsitlarning hujayra chegaralarini, gematoksilin bilan bo'yash esa hujayralar yadrosini aniqlashga imkon beradi (3-rasm).

Hujayra chegaralarini, yadroni, sitoplazmani ko'rsatib preparatning bir qismini chizing va ushbu turdagi epiteliyning ultrastrukturaviy tuzilishini atlas bo'yicha o'rganing.




3-rasm. Mezoteliy (hujayra chegaralari kumush nitrat bilan qoplangan).
1 – mezoteliotsit chegaralari; 2 – mezoteliotsit yadrolari.


Amaliy ish № 4. Ingichka ichak chegarasimon epiteliysi

Kichkina kattalashtirishda preparatda epiteliy bilan qoplangan ichak vorsinkalarini toping. Yuqori kattalashtirishda ushbu turdagi epiteliyning tuzilishini o'rganing. Epiteliotsitlar yadrolarining bir qatorli joylashishiga e'tibor bering. Apikal qutbda chegarasimon hujayralarni toping u to'q pushti va ingichka chiziq shaklida ko'rinadi. Elektron mikroskopikda ko'radigan bo'lsak, hujayraning bu qismida hujayraning assimilyatsiya yuzasini ko'paytiradigan ko'plab mikrovorsinkalarni ko'rishimiz mumkin. Chegarasimon hujayralar orasida, kengaygan apikal qismidan ochiq rangli sitoplazmasi bilan ajralib turadigan qadahsimon hujayralarini (qadahsimon ekzokrinotsitlar) toping (4-rasm).

Bazal membranani, chegarasimon hujayralarini, chiziqli chegarani va qadahsimon hujayralarini ko'rsatib, preparatning bir qismini chizing.



4A. rasm. . Ingichka ichak chegarasimon epiteliysi (gematoksilin-eozin).
 1 – chegarasimon epiteliy. Kichkina kattalashirish.





4B. rasm. Ingichka ichak chegarasimon epiteliysi (gematoksilin-eozin).
 1 – chegarasimon epiteliy; 2 – qadahsimon (bezli) hujayra; 3 – tishchali chegarasimon hujayralari (mikrovorsinkalar). Yuqori kattalashirish.

Amaliy ish № 5. Traxeyaning kiprikli epiteliysi

Preparatni kichik va yuqori kattalashtirishda oʻrganing. E'tibor bering, epiteliy qatlamining barcha hujayralari bazal membranada joylashgan. Hujayralarning balandligi va shakli har xil. Piramidasimon shakldagi past interkalatsiyalangan hujayralar kengaytirilgan asos qismi bilan bazal membranaga qaragan. Ushbu hujayralar kambiydir - boshqa barcha qatlam hujayralarining yangilanish manbai. Toraygan uchki qismi bilan ular shpindel shaklidagi yuqori interkalatsiyalangan hujayralar orasida joylashgan. Eng yuqori epiteliy hujayralari tor asos qismi bilan bazal membranadan boshlanadi va epiteliy qatlamining erkin yuzasiga yetadi. Ushbu hujayralarni kiprikli yoki bezli hujayralarga farqlashimiz mumkin. Bezli epiteliotsitlar kiprikli hujayralaridan uchburchak, intensiv rangli yadroga ega qadah shaklida boʻlishi bilan farqlanadi.

Hujayralarning har xil shakli va balandligi tufayli ularning kesilgan yadrolari turli darajalarda joylashgan boʻlib, bir nechta qatorlarni hosil qiladi, bu epiteliy «koʻp qatorli» hisoblanadi (5-rasm).

Atlasda har xil turdagi hujayralarning tuzilishini koʻrib chiqib, preparatning bir qismini chizib oling.



5-rasm. Kiprikli epiteliy (temir gematoksilin).

1 – kiprikli epiteliy; 2 – biriktiruvchi to‘qima; 3 – gialinli tog‘ay; 4 – kiprikli hujayralar; 5 – hujayra kipriklari. A – kichik kattalashtirish, B – yuqori kattalashtirish.

Amaliy ish № 6. Epiteliy klassifikatsiyasi.

Ma’ruza, o‘quv qo‘llanma va atlasdan foydalangan holda ushbu jadvalni to‘ldiring:

Epiteliy klassifikatsiyasi

Epiteliy morfologik turlari	Tavsif	Gistologik hususiyati	Misol; joylashishi va vazifasi

2-mashg‘ulot. Bezli epiteliiy. Ko‘p qavatli epiteliiy.

Mashg‘ulot maqsadi

Ko‘p qavatli epiteliiylarning tuzilishi, xususiyatlari va sekreksiya jarayonining hujayra mexanizmlarini o‘rganish.

Tayyorlanish uchun savollar:

1. Ko‘p qavatli epiteliiy: tuzilishi, gistogenezi va funksional xususiyatlari:

- Muguzlanmaydigan epiteliiy;
- Muguzlanadigan epiteliiy;
- O‘zgaruvchan epiteliiy;

2. Sekreksiya sikli. Sekreksiya jarayonida ishtirok etuvchi hujayra tuzilmalari.

3. Sekreksiya turlari. Ularning xususiyatlari. Misollar:

4. Bezlarning gistologik tuzilishi va tasnifi.

Asosiy atama va tushunchalar:

Bazal hujayrali qavat, tikansimon hujayrali qavat, yuza qavatlar, keratinotsitlar, melanotsitlar, Langergans hujayralari (dendritik hujayralar), Merkel hujayralari (taktil epiteliositlar), tonofibrillar, keratogialin granulari, filagrin, keratolinin, epidermal proliferativ birliklar, fiziologik regeneratsiya, kambial hujayralar, sekreksiya, boshqaruv sekreksiyasi, sekreksiya sikli, merokrin sekreksiyasi, apokrin sekreksiyasi, golokrin sekreksiyasi, bezlar.


Amaliy ishlar:

Amaliy ish № 1. Ko‘p qavatli muguzlanmaydigan epiteliiy

«Ko‘z shox pardasi»ning doimiy mikropreparatini kichik va yuqori kattalashtirishda o‘rganing. Kichkina kattalashtirishda shox pardaning tashqi yuzasida ko‘p qavatli epiteliiyni toping. Yuqori kattalashtirishda bazal membrananing aniq ko‘rinadigan qatlamiga e‘tibor bering. Uning ustida epiteliositlarning bazal qavati joylashgan bo‘lib, uning hujayralari kub shaklida va oval yadroga ega. Bazal qavat ustida sitoplazmatik o‘simtalar bilan tartibsiz shakldagi hujayralarning bir necha qavati joylashgan. Ushbu hujayralarning yadrolari yumaloq shaklga ega. Bular tikansimon hujayralardir. Undan keyin yuza qavat keladi va u qavat


yuzasiga parallel ravishda choʻzilgan, yadrolari boʻlgan tekis hujayralardan iborat. Bazal, tikansimon, donador, yuza qavat va bazal membranalarni belgilab preparatning bir qismini chizib oling. Har bir qavatlardagi epiteliy hujayralarining shakillariga eʼtibor qarating (6-rasm).

Atlas va qoʻllanmalardan foydalangan holda har xil qatorlarning ultrastrukturaviy tuzilishini oʻrganing.



6A-rasm. Koʻp qavatli yassi muguzlanmaydigan epiteliy (gematoksilin-eozin) (kichik kattalashtirish).

1 – koʻp qavatli yassi epiteliy; 2 – shox parda moddasi (biriktiruvchi toʻqima)




6B-rasm. Ko‘p qavatli yassi muguzlanmaydigan epiteliy (gematoksilin-eozin) (yuqori kattalashtirish).

1 – ko‘p qavatli yassi epiteliy; 2 – shox parda moddasi (biriktiruvchi to‘qima); 3 – yuza qavat epiteliysi; 4 – o‘rta qavat epiteliysi; 5 – bazal qavat epiteliysi; 6 – bazal membrane.

Amaliy ish № 2. Ko‘p qavatli yassi muguzlanuvchi epiteliy.


Kichik va yuqori kattalashtirishda doimiy «odam barmoq terisi» mikropreparatini o‘rganing. Kichik kattalashtirishda epidermis qavatini toping. Yuqori kattalashtirish orqali uning tarkibidagi bazal membranada yotgan hujayralar tomonidan hosil bo‘lgan bazal qavatini toping. Yuqorisida ularni bir-biriga bog‘laydigan tikansimon hujayralar qavatini ko‘rishingiz mumkin. Qoraroq rangda donador qavat ajralib turadi. U sitoplazmada keratogialin donalarini o‘z ichiga olgan yassilashgan hujayralardan iborat. Ushbu qavat bilan bir xil ko‘rinadigan yengil yaltiroq qavat yanada yuzaroqda joylashgan. Epidermisning tashqi muguz qavati posthujayra tuzilmalari bo‘lgan keratin tangachalardan iborat (7-rasm).

Bazal, tikansimon, donador, yaltiroq, muguz qavat va bazal membranalarni belgilab, preparatning bir qismini chizib oling. Dermisning biriktiruvchi to'qima qavatiga e'tibor bering.



7-A.rasm. Ko'p qavatli yassi muguzlanuvchi epiteliy (gematoksilin-eozin, rezortsin-fuksin,)(kichik kattalashtirish).

1 – muguz qavat; 2 – yaltiroq qavat; 3 – donador qavat; 4 – tikansimon qavat; 5 – bazal qavat; 7 – tolali biriktiruvchi to'qima.




7-B.rasm. Ko'p qavatli yassi muguzlanuvchi epiteliy (gematoksilin-eozin, rezortsin-fuksin,)(yuqori kattalashtirish).

1 – muguz qavat; 2 – yaltiroq qavat; 3 – donador qavat; 4 – tikansimon qavat; 5 – bazal qavat; 6 – bazal membrana.

Amaliy ish № 3. O'zgaruvchan epiteliy.

Kichik va yuqori kattalashtirishda «siydik pufagining o'zgaruvchan epiteliysi» doimiy mikropreparatini o'rganing. Kichik kattalashtirishda siydik pufagining ichki yuzasini qoplaydigan o'zgaruvchan epiteliy qatlamini toping. Yuqori kattalashtirishda bazal hujayralarni toping. Ushbu qavat hujayralarining bir qismi to'g'ridan-to'g'ri bazal membranada yotadi va bazal qavatni hosil qiladi. Boshqa hujayralar bazal membranadan uzoqroqda joylashgan. Ular oraliq qavatni hosil qiladi. Yuza qavat noksimon hujayralardan iborat (8-rasm).

Preparatning bir qismini chizib, barcha qavatlarni belgilab chiqing.



8-rasm. O'zgaruvchan epiteliy (gematoksilin eosin).

1 – o'zgaruvchan epiteliy; 2 – tolali biriktiruvchi to'qima; 3 – yuza qavatdagi epiteliotsitlar; 4 – oraliq qavatdagi epiteliotsitlar; 5 – bazal qavatdagi epiteliotsitlar. A – kichik kattalashtirish, B – yuqori kattalashtirish.

Amaliy ish № 4. Sekretsia jarayoni

Atlasdan merokrin, apokrin va golokrin sekretiysi mexanizmlarini o'rganib, albomga sxemalarini chizib oling.



Amaliy ish № 5. Daryo qisqichbaqasi yashil bezining sekretor epiteliysi

Daryo qisqichbaqasining yashil (antenna) bezi ko'plab yumaloq kameralarga bo'lingan xaltachaga o'xshaydi, ularning devorlari bir qavatli bezli epiteliya bilan qoplangan.

Preparatni kichik kattalashtirishda o'rganing. Bezning oxirgi qatlamidagi bo'shliqlardan birini toping va keyin yuqori kattalashtirishda bunday bo'shliqning epiteliy qatlamini ko'rib chiqing. Epiteliy qatlami bazal membranada joylashgan. U turli xil funksional holatda bo'lgan va o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan glandulotsitlardan (bezli hujayralar) iborat: yadrolari katta, bir yoki bir nechta yadrolari bo'lgan kub shaklidagi hujayralar bo'lib, ular sekretsia qilish va sekretsia mahsulotini to'plash bosqichida bo'ladi. Glandulotsitning apikal qutbida sekretsia to'planishi bilan hujayralar yuzasida sekretsia mahsulotini o'z ichiga olgan shaffof shish paydo bo'ladi. Keyin sekretiyaning chiqarish bosqichi boshlanadi: hujayraning apikal qismining shakli o'zgarib hujayradan ajralib turadi, shundan so'ng sekretor hujayralar apikal qutbda tekislangan shaklga ega bo'ladi. Shundan so'ng hujayralar tiklanish bosqichiga kiradi (9-rasm).

Ushbu bezdagi sekretsia turini qaysi belgilari orqali aniqlashimiz mumkin?

Preparatning bir qismini yuqori kattalashtirishdagi holatini chizib oling.



9-rasm. Bezli epiteliy (apokrin sekretiya) (gematoksilin-eozin).

1 – yashil bezning oxirgi qism bo‘shlig‘i; 2 – epiteliyal qoplama; 3 – sekretiya ishlab chiqish va to‘plash bosqichidagi hujayra; 4 – sekretiyanı chiqarish bosqichidagi hujayra. A – kichik kattalashtirish, B – yuqori kattalashtirish.

Amaliy ish № 6. Bezlar klassifikatsiyasi.

Atlas va qo‘llanma malumotlaridan foydalangan holda bezlarning morfologik klassifikatsiyasini tuzib chiqing.

3-mashg‘ulot. Mezenxima. Qon. Gemopoez.

Mashg‘ulot maqsadi.

Shaklli elementlar tuzulishi, rivojlanishi va gistofiziologiyasini o‘rganish.

Tayyorlanish uchun savollar:

1. Suyuq biriktiruvchi to‘qima, ya’ni qonning umumiy xususiyatlari.
2. Eritrotsitlarning mikroskopik va ultramikroskopik xususiyatlari.
3. Eritrotsitlar differoni.
4. Granulotsitlar tuzilishi va vazifasi.
5. Granulositopoez.
6. Limfotsit va limfopoez.
7. Trombotsit tuzilishi va vazifasi. Megakariotsitlar.

Asosiy atama va tushunchalar:


Gematokrit, qonning shaklli elementlari, eritroblastlar, retikulotsitlar, exinotsitlar, stomatotsitlar, spektrin, glikoforin, oqsil, gemoglobin, granulotsitlar, granulalar birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi darajali, aktiv kislorod turlari, fagotsitoz, yallig‘lanish, selektinlar, rolling, diapedez, xemotaktik omillar, sitokinlar, differensiallash, differon, asos hujayralar, totipotent, pluripotent hujayralar, polipotent hujayralar, unipotent hujayralar.

Amaliy ishlar

Amaliy ish № 1. Mezenxima.

«Tovuq embrionining mezenximasi»ning doimiy mikropreparatini kichik va yuqori kattalashtirishda o‘rganing. Kichik kattalashtirishda nerv naychasi, xorda va ichaklar majmuasini toping. Nerv naychasining yon-pastki qismida siyrak joylashgan hujayralardan tashkil topgan ochiq rangli joyni toping. Mikroskopni yuqori kattalashtirishga o‘tkazing va mezenxima hujayralarini o‘rganing. Qon orolchalarini toping. Mitotik bo‘linadigan hujayralarni topishga harakat qiling (10-rasm).

Preparatning bir qismini chizib oling.




10-rasm. Mezenxima (gematoksilin-eozin).

1 – mezenximali hujayra; 2 – qon orolchasi; 2a – endoteliy; 2b – birlamchi qon hujayralari.

Amaliy ish № 2. Baqa qon plazmasi.

«Baqa qoni»ning doimiy mikropreparatini kichik va yuqori kattalashtirishda oʻrganing. Koʻp sonli yirik yadroli eritrotsitlarga ahamiyat bering. Limfotsit, qon plastinkalari va granulotsitlarning har xilini toping (11-rasm).

Qonning shakilli elementlarini belgilab preparatning bir qismini chizib oling.




11-rasm. Baqa qoni (gematoksilin-eozin).

1 – eritrotsit; 2 – limfotsit; 3 – granulotsit; 4 – trombotsit

Amaliy ish № 3. Odam qon plazmasi.

Kichik va yuqori kattalashtirishda doimiy «odam qon plazmasi» mikropreparatini oʻrganing. Koʻp sonli qizil qon hujayralariga eʼtibor bering. Limfotsitlar, granulotsitlarning har xil turlari, qon plastinkalarini toping (12-rasm).

Qonning shaklli elementlarini belgilab, preparatning bir qismini chizib oling.



12-rasm. Odam qoni (gematoksilin-eozin).

1 – eritrotsit; 2 – limfotsit (kichik va katta); 3 – monsit; 4 – neytral granulotsit; 5 – eozinofil granulotsit



Amaliy ish № 4. Umumiy qon aylanish tizimi.

Atlas va darslik malumotlari asosida gemapoez jarayonida qonning shaklli elementlarini farqlash sxemasini tuzing. Differentsiatsiya darajasi bo‘yicha 6 ta hujayra sinfini ajrating. Gemapoezni jarayonini tartibga solishning asosiy omillarini sanab o‘ting.

Amaliy ish № 5. Retikulyar to‘qima.

Limfa tugunlari immunitet tizimining organi bo‘lib, uning stromasi retikulyar to‘qima tomonidan hosil bo‘ladi. Kichik kattalashtirishda limfa tugunining katta qismi limfotsitlar to‘plamlari bilan to‘la ekanligini ko‘rish mumkin, ularni hujayraning deyarli butun hajmini egallagan katta yumaloq yadrosidan tanib olishimiz mumkin. Limfa tugunining markaziy qismida limfotsitlarsiz yorug‘ joylarini toping. Yuqori kattalashtirishni o‘rnatib va sitoplazmaning yaxshi bo‘yalmagan qismida tavsiflangan, cho‘zilgan retikulyar hujayralardan tashkil topgan retikulyar to‘qimalarni ko‘rib chiqing. Retikulyar hujayralarning yadrolari yumaloq yoki oval shaklida bo‘lib, limfotsitlar yadrolariga qaraganda zaifroq rangga ega. Ularda yadrochani topish mumkin (13-rasm).

Yuqori kattalashtirishdagi preparatning bir qismini chizib oling.



13-rasm. Retikulyar to'qima (gematoksilin-eozin).

1 – retikulyar to'qima; 2 – retikulyar hujayra; 3 – qon hujayralari. A – kichik kattalashtirish, B – yuqori kattalashtirish.

4-mashg‘ulot. Siyrak tolali biriktiruvchi to‘qima. Zich biriktiruvchi to‘qima. Yog‘ toqimasi.

Mashg‘ulot maqsadi.

Biriktiruvchi to‘qimalar tuzulishi, gistogenezi va gistofiziologiyasini o‘rganish.

Tayyorlanish uchun savollar:

1. Biriktiruvchi to‘qima klassifikatsiyasi.
2. Mexanotsit differoni: vazifasi va tuzilishi.
3. Semiz hujayralar. Makrofaglar. Plazmotsitlar.
4. Biriktiruvchi to‘qima hujayralar aro moddalar: tuzilishi, xususiyati va yangilanish mexanizmi.
5. Zich biriktiruvchi to‘qima.
6. Yog‘ to‘qimasi xususiyatlari.

Asosiy atama va tushunchalar


Biriktiruvchi to‘qima rezident hujayralari, adventitiv hujayra, fibroblast, fibronektin, kollagen, elastin, fibrotsit, fibroklast, adipotsit, adipokin, plazmatik hujayralar, gistiotsit, semiz hujayralar, biogenli aminlar, geparin, allergik reaksiyalar, peritsit, endotenoniy, peritenoniy, retikulyar to‘qima

Amaliy ishlar

Amaliy ish № 1. Siyrak tolali biriktiruvchi to‘qima.

«Kalamush siyrak biriktiruvchi to‘qimasi» doimiy mikropreparatini kichik va yuqori kattalashtirishda o‘rganing. Kichik kattalashtirishda preparatning yorug‘ bo‘yalgan qismini toping. Yuqori kattalashtirishda hujayralararo modda - keng lentaga o‘xshash kollagen tolalar va ingichka elastik tolalarini o‘rganing. loyqa Yorug‘ bo‘yalgan, konturlari uncha aniq bo‘lmagan fibroblast hujayralarini toping. Konturlari aniq va donador sitoplazmaga ega to‘qima makrofaglari, ya’ni gistiotsitlar mavjud. Siz gemapoez differon hujayralar, ya’ni neyetrofillar, limfotsitlar va monotsitlarni ham topishingiz mumkin. Alohida yog‘ hujayralari ham mavjud (14-rasm).

Asosiy hujayra turlarini, tolalarni va amorf moddalarni ko'rsatib, preparatning bir qismini chizib oling.





14-rasm. Siyrak tolali biriktiruvchi to'qima (temir gematoksilini).

1 – kollagen tolalar; 2 – elastik tolalar; 3 – fibroblast; 4 – gistiotsit

Amaliy ish № 2. Kalamush teri osti kletchatka gisiotsitlari.

Kichik va yuqori kattalashtirishda «kalamush teri osti to'qimalarining gistiotsitlarida bo'yoq to'planishi» doimiy mikropreparatni o'rganing. Preparat gistiotsitlar tomonidan eng intensiv ravishda amalga oshiriladigan fagotsitoz hodisasini tasvirlaydi. Tripan ko'ki bo'yog'ini kiritgandan so'ng, to'qima makrofaglari bo'yoq zarralarini faol ravishda ushlaydi va preparatda donador ko'rinadi. Fibroblastlar kamroq intensiv va bir tekis rangga bo'yalgan (15-rasm).

Fibroblast va gistiotsitlarni belgilab preparatning bir qismini chizib oling.




15-rasm. Gistiotsitlarda bo'yoqlar to'planishi (tripan ko'ki, kvast karmini).
 1 – gistiotsit (makrofag); 2 – fibroblast. A – kichik kattalashtirish; B – yuqori kattalashtirish.

Amaliy ish № 3. Yog' to'qimasi.

Kichik va yuqori kattalashtirishda «mushuk qorin bo'shlig'i yog' to'qimasi» doimiy mikropreparatni o'rganing. Kichik kattalashtirishda

sariq-to‘q sariq rangda to‘plangan adipotsitlar, ya’ni yog‘ tomchilarini ko‘rishimiz mumkin. Yuqori kattalashtirishda individual adipotsitlarning tuzilishini o‘rganing. E’tibor bering, hujayraning katta qismini trofik qo‘shilishning bir turi bo‘lgan 1-2 ta katta yog‘ tomchilari egallaydi (16-rasm). Preparatning bir qismini chizib oling.



16-rasm. Yog‘ to‘qimasi (sudan III gematoksilini).


1 – yog‘ hujayralari (adipotsit). A – kichik kattalashtirish; B – yuqori kattalashtirish.

Amaliy ish № 4. Zich tolali biriktiruvchi to‘qima.

Kichik va yuqori kattalashtirishda «buzoqcha payining bo‘ylama kesmasi» va «buzoqcha payining ko‘ndalang kesmasi» doimiy mikropreparatlarni o‘rganing. Kollagen tolalarining parallel yo‘naltirilgan to‘plamlarni va qon tomirlarini o‘z ichiga olgan silliq tolali biriktiruvchi to‘qima qatlamlarini ko‘rib chiqing. Tola o‘qi bo‘ylab joylashgan fibrotsitlarning to‘q-ko‘k yadrolariga e’tibor bering (17-rasm).


Ko‘ndalang kesmada fibrotsitlar qatlami bilan o‘ralgan birlamchi tolalar tutamini toping. Bir nechta birlamchi tolalar tutamlari siyrak biriktiruvchi to‘qima (endotenoniy) bilan o‘ralgan, bular ikkilamchi tolalar tutami hisoblanadi. Ulardan siyrak biriktiruvchi to‘qimaning qalin qavati (peritenoniy) bilan o‘ralgan uchlamchi tolalar tutami hosil bo‘ladi (18-rasm).

Payning bo‘ylama va ko‘ndalang tuzilishini chizib oling.




17-A rasm. Payning bo‘ylama kesmasi (gematoksilin-eozin). Kichik kattalashtirish.


1 – kollagen tolalar tutami; 2 – fibrotsitlar (pay hujayralari); 3 – qon tomirlarga ega ikkilamchi tolalar tutami orasidagi siyrak biriktiruvchi to‘qima qatlami (endotenoniy).



17-B rasm. Payning bo'ylama kesmasi (gematoksilin-eozin). Yuqori kattalashtirish.
1 – kollagen tolalar tutami; 2 – fibrotsitlar (pay hujayralari); 3 – qon tomirlarga ega
ikkilamchi tolalar tutami orasidagi siyrak biriktiruvchi to'qima qatlami (endotenoniy).



18-A rasm. Payning ko'ndalang kesmasi (gematoksilin-eozin). Kichik kattalashtirish.
1 – kollagen tolalar tutami; 2 – fibrotsitlar (birlamchi tolalar tutami oralig'idagi qanotsimon shakilli pay hujayralari); 3 - qon tomirlarga ega ikkilamchi tolalar tutami orasidagi siyrak biriktiruvchi to'qima qatlami (endotenoniy); 4 – uchlamchi tolalar to'plamini o'rab turuvchi, qon tomirga ega biriktiruvchi parda (peritendidiy).




18-B rasm. Payning ko'ndalang kesmasi (gematoksilin-eozin). Yuqori kattalashtirish.
 1 – kollagen tolalar tutami; 2 – fibrotsitlar (birlamchi tolalar tutami oralig'idagi qanotsimon shakilli pay hujayralari); 3 - qon tomirlarga ega ikkilamchi tolalar tutami orasidagi siyrak biriktiruvchi to'qima qatlami (endotenoniy); 4 – uchlamchi tolalar to'plamini o'rab turuvchi, qon tomirga ega biriktiruvchi parda (peritendidiy).

Amaliy ish № 5. Elastik bog'lam.

Bo'ylama kesimdagi elastik bog'lamni kichik kattalashtirishda o'rganing. Elastik bog'lam – bu fibroz to'qima (peritenoniy) bilan qoplangan elastik tolalardir. Yuqori kattalashtirishda hujayralararo moddada ko'p miqdordagi qalin, sariq rangga bo'yalgan, parallel joylashgan elastik tolalar mavjudligini ko'rish mumkin. Fibrotsitlar ustun hujayralardir. Kollagen tolalari nisbatan kam miqdorda uchraydi, buning natijasida bog'lam elastiklik hususiyatga ega bo'ladi (19-rasm).

Preparatning bir qismini chizib oling.




9-rasm. Elastik bog'lam bo'ylama kesimi (gematoksilin-pikrofuksin).
 1 – bo'ylama kesimdagi elastik tolalar tutami; 2 – siyrak biriktiruvchi to'qima qatlami (endotenoniy); 3 – fibrotsitlar. A – kichik kattalashtirish; B – yuqori kattalashtirish.

Amaliy ish № 6. Zich shakllanmagan biriktiruvchi to‘qima.


Kichik va yuqori kattalashtirishda «odam barmoq terisi» doimiy mikropreparatini o‘rganing. Kichik kattalashtirishda epidermis va derma qavatini toping. Yuqori kattalashtirishda derma qavatini o‘rganib chiqing. Kollagen tolalarning kesmada tartibsiz joylashganligiga ahamiyat bering.

Preparatning bir qismini chizib oling.



20A-rasm. Dermaning to‘rsimon qavatidagi zich shakllanmagan biriktiruvchi to‘qima (gematoksilin-eozin, rezortsin-fuksin) (kichik kattalashtirish).

1 – teri dermasining to‘rsimon qavati



20B-rasm. Dermaning to'rsimon qavatidagi zich shakllanmagan biriktiruvchi to'qima (gematoksilin-eozin, rezortsin-fuksin) (yuqori kattalashtirish).

1 – teri dermasining to'rsimon qavati; 2 – kollagen tolalar tutami; 3 – elastik tolalar tutami; fibrotsitlar yadrolari.

5- 6- mashg'ulot. Skelet biriktiruvchi to'qimalari.

Mashg'ulot maqsadi.

Tog'ay va suyak to'qimalarining tuzilishi va vazifalarini o'rganish.

Tayyorlanish uchun savollar.

1. Skelet biriktiruvchi to'qimalarining umumiy xususiyatlari.
2. Tog'ay hujayralarining xususiyatlari.
3. Tog'ay matriksi komponentlari.
4. Gialin tog'ay tuzilishi.
5. Elastik tog'ay.
6. Tolali tog'ay.
7. Suyak to'qima klassifikatsiyasi.
8. Suyak to'qima hujayrasi xususiyatlari.

9. Suyak to'qimasi asosiy hujayralararo modda tarkibi va xususiyatlari.
10. Retikulo-fibroz suyak to'qimasi tuzilishi.
11. Plastinkasimon suyak to'qimasi. Osteon.
12. Osteogenez.

Asosiy atama va tushunchalar:

Xondrogen orolcha, xondroblastlar, tog'ay matritsa, izogen guruhlar, hududiy matritsa, interterritorial matritsa, tog'ay ustki pardasi, yosh tog'ay zonasi, yetuk tog'ay zonasi, glikozaminoglikanlar, kollagen, elastin, osteotsit, osteoblast, suyak bilan qoplangan hujayralar, ostoklast, rezorbsion lakunalar, suyak morfogenetik oqsillari, asosiy hujayralararo modda, osteomukoid, ossein, gidroksiapatit, yirik tolali (retikulofibroz) suyak to'qimasi, plastinkali suyak to'qimasi, suyak plastinkalari, ixcham suyak moddasi, tog'ay ustki pardasi, endosteum, osteon, lakunalar.

Amaliy ishlar

Amaliy ish № 1. Gialin tog'ay tuzilishi.

